



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

## BADIIY DISKURSDA LINGVISTIK PRAGMATIKANING AHAMIYATI

**Madazizova Dilafroz Xabibiloyevna,**  
*Farg'ona Davlat Universiteti katta o'qituvchisi*  
[d.m.xabibilloyevna@pf.fdu.uz](mailto:d.m.xabibilloyevna@pf.fdu.uz)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179366>

*Annotatsiya:* Maqolada lingvistik pragmatikaning badiiy diskurs turlaridagi ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

*Kalit so'zlar:* badiiy diskurs, lingvistik pragmatika, jonli- harakatdagi til (nutq), nutqiy akt, semantika, pragmatika.

Dunyo mamlakatlarida vujudga kelgan globallashuv mamlakatlar o'rtasida xalqaro bitim va kelishuvlarni rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bunday jarayon, turli xalqlarni bir-biri bilan bog'lab turadigan, muloqotning asosiy vositasi bo'lgan-tilga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. U faqatgina "lingua franca" (a shared language of communication used by people whose main languages are different, ya'ni ona tillari har xil bo'lgan odamlar tomonidan qo'llaniladigan umumiy muloqot tili) yoki dominant (more important, powerful or noticeable than other languages- boshqa tillarga qaraganda muhimroq, kuchliroq) sanalmish tillargagina emas, balki o'z jamiyatida muloqot uchun qo'llaniladigan barcha tillarga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Buning ifodasi ayniqsa, jamiyatning asosiy qatlamini tashkil etuvchi yoshlar nutqida yaqqol namoyon bo'la boshladi. Yoshlarning zukkoligi, yangiliklarga intiluvchanligi, gadjet (gadget) olamiga shaydoliklari, shuningdek, ularning yumor va xushchaqchaqlik tabiati globallashuv jarayonida o'zga tillardan kirib kelgan yangi so'z va iboralarning yoki tildagi mavjud leksemalarning hosila ma'nosining mualliflariga aylanmoqdalar. Darhaqiqat, jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch, unda sodir bo'layotga o'zgarishlarni eng birinchi sezuvchi va uni ommaga yetkazuvchi ham aynan yoshlardir. Yoshlarning tildan foydalanishdagi erkinlik hissi, ularning ko'p tillarni bilib ulardan bemaol foydalanishlari ularni o'zaro so'z o'yinlarini o'ynashga undaydi. Yoshlar orasidagi bu kabi so'z o'yinlari yangi sotsiolektlarning vujudga kelishiga ham turtki bo'ladi. Muloqotda, ayniqsa badiiy diskursning personal (kundalik, egzisztensial) diskurs turlarida sotsiolektlar xalqchil til sifatida qo'llaniladi. Ular ishtirokidagi muloqotlar asosan bir-biriga yaqin, bir-birini yaxhi biladigan kishilar o'rtasida amalga oshiriladi. Bunday muloqot norasmiy nutq shaklida bo'lib, erkinlik, samimiylik, expressivlik kabi ijobiy semalarni o'z ichiga oladi. Sotsiolektlar qatnashgan muloqot suhbatdosh madaniyati, ruhiyati, qanday guruhga mansubligi, jamiyatdagi o'rnini yaxshiroq bilib olishga imkoniyat beradi. Zero, "nutqda



## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

insonning fikri bilan birga uning ruhiy olami ham o'z ifodasini topadi". Demak, badiiy diskurda muloqot subyektining asliyatini, ya'ni uning oshkora va maxfiy olamini tadqiq etish uchun uning "jonli", "harakatdagi" spontan nutqini o'rganish bilan bog'liq masala katta ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, insonning borliq olamidagi ijtimoiy faoliyati oinasi (in'ikosi) bo'lgan "jonli nutqi"ni badiiy diskurda pragmatik va semantik nuqtai nazardan tadqiq etish tilshunoslik uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Pragmatika tilshunoslik fanining yangi tarmoqlaridan biri, u insonning nutqi bilan bog'liq masalalarni o'rganadi. U insonlarning nutqiy jarayoni, nutq ishtirokchilarining kommunikativ maqsadi, shuningdek, nutq vaziyatining ta'siri bilan bog'liq masalalarni o'rganadi. Pragmatika (pragmatics-the study of how words and phrases are used with special meaning in particular situation, mazsus vaziyatda maxsus so'z va iboralarning ishlatilishi haqidagi fan ) grekcha so'zdan olingan bo'lib, "ish", "harakat" ma'nolarini anglatadi. U fanda XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida xorij tilshunoslari Ch. Pirs, U. Jems, D. Dyun, Ch. Morris kabi olimlarning ishlarida namoyon bo'lgan va Ch. Morris tomonidan birinchi bo'lib fanga kiritilgan. Yana bir guruh xorij tilshunoslari J. Ostin, J.Serl va Z. Bendlerning "speech act", ya'ni "nutqiy akt" nazariyasi ta'limotida lingvistik pragmatika shakllandi. Tilshunoslar tadqiqotlari nutqiy akt so'zlovchining kommunikativ niyati ostida vujudga kelishini va nutqiy aktlar birlashib, nutqiy mazmuni ifoda etishini ta'kidlaydilar. Muloqot jarayonida adresant o'z adresatiga munosabatini nutqiy aktlar orqali ifodalaydi. Adresantning nutqiy akti uni chuqurroq o'rganishga (bilishga), ya'ni uning olamni bilish va his qilishidagi tasavvurlarini namoyon eta oladi. Tilshunoslikda bu lingvistik pragmatikani shakllantiradi. Lingvistik pragmatika 60-70-yillar mobaynida xorij tilshunosi L. Vitgensheyning falsafiy qarashlari bilan bog'liq, uning tadqiqotlarida pragmatika nazariy semiotik tadqiqotning mustaqil sohasi sifatida ko'rsatib o'tilgan. Lingvistik pragmatika so'zlovchining ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq masalalarni uning nutqida real gavdalanishini o'z ichiga oladi. Tilshunos Ch. Pirs buni quyidagicha izohlaydi: "Inson foydalanadigan so'z va belgi - bu insonning o'zidir". Demak, insonning nutqidan uni kimligini anglab olish mumkin. Muloqot jarayoni so'zlovchidan sintaktik, semantik bilimlar bilan bir qatorda, adresantning ijtimoiy faoliyatiga nisbatan mos so'zni tanlash va uni to'ri ifodalash kabi strategiyani talab qiladi. Buni muloqotda individual taktika deb nomlash ham mumkin. Individual strategiya – bu tilshunos Umarxodjayev ta'biri bilan aytganda, nimani gapirish muhim emas, balki, uni qanday gapirish muhimdir. Ya'ni, subyekt uchun gapning mazmuni (semantika) bilan uning adresatga yetkazish



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

strategiyasi ham katta ahamiyatga ega. Bu borada tilshunos M. Hakimovning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: "Inson semantik bilimlarga ega bo'lishi mumkin, bunga ijtimoiy muhitning o'zi har qanday shaxs uchun ma'lum imkoniyatlarni yaratadi. Biroq semantik bilimlarga ega bo'lishning o'zi insonning so'zlash, fikrlash va ifoda mazmunini anglashi uchun kamlik qiladi. Inson tildagi barcha semantik bilimlarni bilish bilan birga ularni o'z maqsadi yo'lida tanlay olishi va ifodalash imkoniga ega bo'lishi lozim." Tildagi bu hodisalarni o'rganish lingvistik pragmatikaning asosiy vazifasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ерофеева Т.И. Социолект-стратификационное исследование: Дис. Фил. док. наук.-Санкт-петербург, 1995
2. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика//Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI.-М., 1985.-С.-471
3. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Тошкент, "Академнашр"-2013.
4. Longman Dictionary of Contemporary English, Fifth Edition (LDOCE5)@Pearson Education Limited 2009
5. Oxford dictionary of English. On-Line dictionary. v.1.9 (fyn systems).